

**JADIDCHILIK TAFAKKURI VA MA’RIFIY ISLOHOTLAR
TAMOYILLARI**

Shirin ABDUMUTALOVA,

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878381>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada yetuk olim va pedagog Abdulla Avloniyning yangi jadid harakatlari, pedagogik qarashlari orqali ona Vatani, ta’lim va fan sohasi hamda dars jarayoniga bir qancha o‘zgarish va yangilanishlar olib kiritgani, uning pedagogik qarashlari asosida maktab va oliy ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida interaktivlik, faollik, o‘zaro hurmat va tarbiya masalalariga o‘z yechimini topishi, uning pedagogik asarlarida ham tarbiya va odob-axloq tamoyillari va ta’lim sohasiga jiddiy e’tibor berilgani, uning pedagogik qarashlari hamda asarlaridagi tarbiya masalasi haqida fikr yuritiladi.*

***Tayanch so‘zlar:** Vatan, ona tili, pedagogika, odob, tarbiya, ta’lim, ko‘nikma, tadqiqot, metodika, metod, innovatsiya.*

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-ma’naviy hayotida muhim burilish yasagan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish, madaniy yuksalish va xalqni savodsizlik, jaholat domidan qutqarishdek yuksak maqsadlar bilan yo‘lga qo‘yilgan edi. Bu harakat vakillari orasida eng yirik siymo - Abdulla Avloniy bo‘lib, u o‘zining pedagogik, adabiy va publitsistik faoliyati orqali jadidchilik g‘oyalarining asosiy targ‘ibotchilaridan biriga aylangan. Avloniy nafaqat ustoz-muallim, balki chinakam ma’rifatparvar sifatida zamonasining ilg‘or fikrlarini xalq ongiga singdirishga intilgan.

Jadidchilik Turkistonda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan ijtimoiy-ma’rifiy harakat bo‘lib, uning bosh g‘oyasi musulmon xalqlarini ilm-fan, texnika, dunyoviy bilimlar orqali uyg‘otish, madaniy va siyosiy mustaqillik sari yetaklashdan iborat edi. Harakat “usuli jadid” ya’ni yangi usulda ta’lim berish g‘oyasini ilgari surdi. Jadidlar xalq orasida maktablar ochdi, darsliklar yozdi, gazeta va jurnallar nashr etdi, adabiy asarlar orqali yangi qarashlarni yoydi. Abdulla Avloniy jadidchilikning amaliyotchi vakillaridan biri bo‘lib, o‘z faoliyatini xalqni savodli qilish, ma’rifat nurlari bilan yoritishga bag‘ishladi. U Toshkentda yangi usuldagi maktab ochdi, o‘quv darsliklari yozdi, teatr va matbuot orqali xalq ongini o‘zgartirishga xizmat qildi. Avloniy o‘zining mashhur “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Birinch muallim”, “Ikkinchi muallim” kabi asarlari bilan jadidchilik maqsadlarini hayotga tatbiq etdi.

Avloniy jadidchilik g‘oyalarini ilgari surar ekan, uning asosiy e‘tibori xalqni ilm-ma‘rifatga chorlash, axloqiy tarbiyani mustahkamlash, milliy va insoniy qadriyatlarni targ‘ib etishga qaratilgan edi. U ilmni jaholatga qarshi eng kuchli qurol deb bilgan va ta‘lim orqali jamiyatni taraqqiyot sari yetaklash mumkinligini ta‘kidlagan. Ayniqsa, axloqiy tarbiya masalasiga katta urg‘u berib, “axloqsiz ilm – xavfli qurol” degan g‘oyani ilgari surgan. Avloniy asarlarida vatanparvarlik, milliy g‘urur, ona tiliga va madaniyatga muhabbat tuyg‘ulari asosiy o‘rinni egallaydi. Shuningdek, u insonparvarlik, tenglik, mehr-oqibat kabi umuminsoniy qadriyatlarni yuksak baholab, ularni jamiyat hayotida muhim omil sifatida ko‘rsatgan. Mazkur tamoyillar Avloniyning jadidchilik harakatidagi faoliyati va asarlarining g‘oyaviy asosini tashkil etadi.

Avloniy jadidchilik harakatining faol namoyandasi sifatida nafaqat pedagogik va adabiy yo‘nalishda, balki jurnalistika va publitsistika sohasida ham samarali ijod qilgan. U “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Osiyo”, “Turon” kabi jadid matbuoti sahifalarida faol qatnashib, o‘z maqolalari orqali keng xalq ommasini uyg‘otishga, ularning tafakkurini yangilashga xizmat qilgan. Avloniy publitsistikasi jamiyatdagi og‘riqli muammolar – savodsizlik, eskicha maktablar, nodon rahbarlar, ijtimoiy befarqlik, ayollar saviyasining pastligi kabi masalalarni dadil ko‘tarib chiqqani bilan ajralib turadi. Ayniqsa, u maktab-maorif tizimidagi islohotlar, ona tilining rivoji, milliy o‘zlikni anglash va iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida xalqni faol bo‘lishga undovchi dolzarb masalalarni yoritgan.

Avloniy o‘z maqolalarida jamiyatda keng tarqalgan befarqlik, johillik, diniy fanatizm va taqlidchilik kabi illatlarni ochiq tanqid qilgan, bunday holatlar xalq taraqqiyotining eng katta to‘sig‘i ekanligini isbotlashga harakat qilgan. Uning fikricha, jamiyat faqat ilm, tafakkur va ma‘naviy uyg‘onish yo‘li bilangina rivojlanishi mumkin. Shu bois, Avloniy jadid matbuotini xalqni uyg‘otuvchi vosita, millatni jaholatdan xalos etuvchi tribuna sifatida ko‘rgan va o‘z publitsistik faoliyati orqali bu vazifani sidqidildan bajargan.

Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining nazariy jihatlari bilan cheklanib qolmay, uning amaliyotga joriy etilishida ham faol ishtirok etgan. Ayniqsa, xalqni ma‘rifatli qilish yo‘lida maktab-maorif sohasida ko‘rsatgan xizmatlari tahsinga loyiqdir. U Toshkentda yangi usuldagi maktablar ochishga bosh-qosh bo‘lgan, zamonaviy darsliklar tuzgan, o‘qituvchi kadrlarni tayyorlashga katta hissa qo‘shgan. Avloniy 1908-yilda Toshkentda yangi usulda maktab tashkil etib, bu maskan orqali o‘quvchilarga nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlar, matematika, geografiya, tabiatshunoslik kabi fanlarni ham o‘rgatishni yo‘lga qo‘ygan.

Mazkur maktablarda u usuli jadid asosida dars berish, ya'ni savod o'rgatishda fonetik yondashuvdan foydalanish, darsliklarni tushunarli va sodda tilda yozish, o'quvchilar bilan interfaol usullarda ishlash kabi ilg'or pedagogik yondashuvlarni joriy etgan. Avloniy maktablarda axloqiy tarbiya, milliy ong va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga alohida e'tibor bergan. U muallimlarni “millat kelajagi uchun mas'ul ziyolilar” deb bilgan va bu kasbning sharafligi, ammo mas'uliyatli ekanini ko'p bora ta'kidlagan.

Shuningdek, Avloniy “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim” nomli darsliklarida o'qituvchilar uchun metodik ko'rsatmalar, bolalar uchun esa sodda va tushunarli o'quv materiallarini taqdim etgan. Uning ta'limga oid ishlari nafaqat o'z zamonasida, balki bugungi ta'lim jarayonida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi sifatida nafaqat ta'lim-tarbiya, matbuot va publitsistika sohalarida, balki madaniyat va san'at yo'nalishida ham muhim ishlarni amalga oshirgan. U taraqqiyparvar ziyolilar — Munavvarqori Abdurashidxonov, Muhammadjon Podshoxo'jayev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo'jayev, Shokirjon Rahimiy kabi zamondoshlari bilan hamkorlikda 1914-yilda „Nashriyot“ va 1916-yilda „Maktab“ shirkatlarini tashkil etgan. Bu tashkilotlar orqali zamonaviy darsliklar, ilmiy, badiiy va ma'rifiy adabiyotlar nashr etilib, xalqning bilim saviyasini oshirishga xizmat qilgan.

Avloniy xalq ongini yuksaltirishda teatr san'atining ta'sirchan vosita ekanini chuqur anglagan holda, bu sohani ham faoliyatining ajralmas qismiga aylantirgan. 1913-yilda u “Turkiston” nomli teatr truppasini tashkil etishda faol qatnashgan va uning dastlabki ijodiy ishlarini boshqargan. 1910–1916-yillar oralig'ida Avloniy bir qancha jahon va rus adabiyotiga mansub sahna asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan hamda ularni sahnalashtirgan. U o'z asarlarida ham, sahna ishlanmalarida ham xalqni o'ylantirish, ogohlikka chaqirish, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy uyg'onishga da'vat qilishni bosh maqsad qilib olgan.

Teatr orqali Avloniy o'z g'oyalarini ommaga yetkazishga harakat qilgan bo'lib, bu orqali san'atni faqat ko'ngilochar vosita emas, balki kuchli ijtimoiy-ma'rifiy platforma sifatida ko'rganini ko'rish mumkin. Uning sahna faoliyati jadidchilik harakatining keng qamrovli va innovatsion yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'z davrida keng ijtimoiy rezonans uyg'otgan.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar ijodida Vatan tuyg'usi, ona tiliga hurmat, ta'lim-tarbiyaning barcha muhim jabhalari haqida keng mushohada yuritadi. Ularning asarlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

chambarchas bog‘langanki, shu jihatdan uning boy adabiy pedagogik merosi milliy pedagogika taraqqiyotida qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.-160-b;
2. Abdulahatov N., Abubakirova O. “Allomalar to‘g‘risidagi asotirlar” F.: 2012;
3. Barakayev R. “Abdulla Avloniy va bolalar adabiyoti”. T.:Fan, 2004;
4. Xo‘jayeva D. Abdulla Avloniyning ta‘lim-tarbiya xususidagi qarashlari//Til va adabiyot ta‘limi, 2003, 3-son.-B.71.
5. Kadirova M., The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning. current research journal of philological sciences, 2022, 3(03), [THE NEED FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING FOLKLORE IN DISTANCE LEARNING | CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES \(inlibrary.uz\)](#)
6. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>
7. Kadirova M.N. The need for improving the methodology of teaching folklore. International scientific-online conference: Intellectual education Netherlands. <https://staff.tiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf>
8. Kadirova M.N. Innovative methods for improving the methodology of teaching folklore in literature lessons. International journal of artificial intelligence. ISSN: 2692-515X, [INNOVATIVE METHODS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING FOLKLORE IN LITERATURE LESSONS | International journal of artificial intelligence](#)
9. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an‘anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
10. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in alisher navoy's creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
11. Kalandarova, Dilafroz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.
12. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma‘rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
13. Rajabova, Hulkar. "Interpretation of time and space in shorts (Chronotope)(On the example of the stories of the writer Shukhrat Matkarim “Yilon”, “Maqar”, Kholiyor Safarov “Honor and Life”, “Wingless Birds”, “The Saddest Joy”)." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 1332-1340.